

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.E.Madaliyev</b>	
Talabalarda axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari.....	115
<b>N.R.Mansurova</b>	
Zamonaviy oliy ta'lilda musiqiy aksiologik yondashuvdan foydalanishning pedagogik asoslari .....	120
<b>M.M.Maxamadjonova</b>	
Oliy ta'lim talabalarida mediasavodxonlikni shakllantirishning pedagogik ahamiyati.....	129
<b>I.I.Soliyev</b>	
Yangi O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari boshqaruviga xalqaro standartlarni joriy qilish metodologiyasi .....	132
<b>D.D.Mirzaakbarov</b>	
Koreys tilini mustaqil o'rghanishdagi muammolar va ularni bartaraf qilishda zamonaviy texnikaning ro'li .....	136
<b>A.Y.Axmedov</b>	
Kommunikativ kompetentsiya bo'lajak psixoglarning kasbiy rivojlanishining hal qiluvchi omili sifatida .....	141
<b>N.B.Dusimbetova</b>	
Jurnalistika yo'nalishi talabalar kompetensiyasi: ko'nikma va bilimlarning ahamiyati .....	146
<b>S.T.Aldasheva</b>	
Mediata'lim vositasida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati .....	151
<b>A.T.Nazarov</b>	
Yangi O'zbekistonda bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarini sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirish holati tahlili.....	154
<b>U.K.Rahmonov</b>	
Bo'lajak tarbiyachilarining estetik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik bosqichlari va komponentlari.....	158
<b>A.R.Saydullayeva</b>	
Bo'lajak pedagoglarda gender madaniyatni rivojlantirishning pedagogik mohiyati va psixologik asoslari.....	162
<b>U.Sh.Abduraximova</b>	
Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish modeli.	168
<b>S.A.Mahmudova</b>	
Bo'lajak pedagoglarning ijtimoiy-kreativ kompetentlik darajasini aniqlashda psixodiagnostik yondashuv va tamoyillardan foydalanish.....	172
<b>J.O.Amirov</b>	
Yosh futbolchilarni koordinatsion qobilyatlarini rivojlantirishning metodologik asoslari.....	176
<b>G.T.Xusanova</b>	
Boshlang'ich sinflarda zid ma'noli so'zlar ustida ishlash usullari.....	180
<b>X.O.Pardayeva</b>	
Kredit- modul ta'lim tizimi jahon tajribasi .....	184
<b>M.Barakayev, M.Nasritdinov</b>	
Ta'limi raqamlashtirish shatroitida o'quvchi-talabalarni nochiziqli fikrlashga o'rgatish imkoniyatlari.....	191
<b>Sh.O.Aripov</b>	
O'g'il bola tarbiyasi va oilaviy munosabatlarni rivojlanish tendensiylarining tarixi.....	195
<b>M.M.Mirzakarimova, M.D.Uzoqjonova</b>	
Ekologik ta'lim-tarbiyani takomilashtirish omillari .....	200
<b>D.T.Nishonova</b>	
Jismoniy tarbiya tizimida sog'lom turmush tarzini shakllantirish yo'llari.....	205
<b>S.T.Xakimov, Sh.Xudoyqulov</b>	
Gimnastika maxsus mashqlari orqali o'quvchilarining jismoniy sifatlarini rivojlanishini kompleks nazorat qilish .....	213
<b>X.X.Abdurahmov</b>	
Yengil atletika mashg'ulotlarida jismoniy sifatlarini rivojlantirish.....	218
<b>M.M.Turg'unov</b>	
Aksiologik yondashuv asosida talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasi .....	223



УО'К: 378:070:37.018.43

**JURNALISTIKA YO'NALISHI TALABALARI KOMPETENSIYASI: KO'NIKMA VA  
BILIMLARNING AHAMIYATI**

**КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ-ЖУРНАЛИСТОВ: НАВЫКИ И ВАЖНОСТЬ ЗНАНИЙ**

**COMPETENCE OF JOURNALISM STUDENTS: SKILLS AND THE IMPORTANCE OF  
KNOWLEDGE**

**Dusimbetova Nargiza Baxtiyarovna**   
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**Annotatsiya**

*Maqolada bo'lajak jurnalistning kasbiy malakasi, kasbiy kompetentsiyaning aksiologik komponenti va talaba jurnalistlar kasbiy kompetentsiyasining prakseologik komponenti 8 guruh ko'nikmalariga asoslanadi. Axborotning jamiyat faoliyati, rivojlanishidagi roli va ahamiyatining o'zgarishi hamda axborot kasbiy faoliyatning obyekti va subyekti, ta'lif muassasalarida jurnalistlar tayyorlash muammolarini o'rganishning dolzarbli qarama-qarshiliklar yoritilgan.*

**Аннотация**

В основу статьи положена профессиональная компетентность будущего журналиста, аксиологический компонент профессиональной компетентности и праксологический компонент профессиональной компетентности студентов-журналистов на основе 8 групп умений. Выделены изменения роли и значения информации в деятельности и развитии общества, а также объекта и предмета информационной профессиональной деятельности, актуальность изучения проблем подготовки журналистов в учебных заведениях, противоречия.

**Abstract**

*The article is based on the professional competence of a future journalist, the axiological component of professional competence and the praxeological component of the professional competence of journalism students based on 8 groups of skills. Changes in the role and significance of information in the activity and development of society, as well as the object and subject of information professional activity, the relevance of studying the problems of training journalists in educational institutions, and contradictions are highlighted.*

**Kalit so'zlar:** gnostik, analitik, kommunikativ, konstruktiv, kompetentsiya, reproduktiv, komponent, prakseologik, globalization

**Ключевые слова:** гностический, аналитический, коммуникативный, конструктивный, компетентностный, репродуктивный, компонент, праксиологический, глобализация.

**Key words:** gnostic, analytical, communicative, constructive, competence-based, reproductive, component, praxeological, globalization.

**KIRISH**

Jurnalistning kasbiy malakasi kasbiy kompetentsiyaning aksiologik komponentisiz amalga oshmaydi. Nafaqat ko'nikma va bilim, balki kasbga, xususan OAVga, butun jamiyatga munosabat ham muhim. Jurnalistlika kasbida aksiologik jihat ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi, u har bir dastur, reportaj, materialda o'zini namoyon qiladi, jurnalistning hodisalar, odamlarga qadrli munosabatini namoyish etadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Eksperimental ishda qayd etilgan aksiologik komponentning rivojlanishi pragmatik, hissiy, qiymat sifatida tavsiflanadi. Talaba jurnalistlar kasbiy kompetentsiyasining prakseologik komponenti 8 guruh ko'nikmalariga asoslanadi: gnostik, analitik, dizayn, kommunikativ, konstruktiv, ijodiy, baholash, axborot. Dekmak, ta'lif muassasa va OAV o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda jurnalistika talabalarining kasbiy kompetentsiyasini shakllantirishni ta'minlaydigan pedagogik shartlar quyidagilardir:

- jurnalist-talabalarning OAV faoliyatida real ishtiroki (radio eshittirish va teledasturlar yoki matbuot uchun materiallar yaratish);

- kasbiy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishda talabaning ijodiy va qimmatli pozitsiyasi;

## PEDAGOGIKA

- jurnalist-talabalarning kasbiy mahoratini maqsadli shakllantirish holatlari (ya'ni kompetentsiyaning prakseologik komponenti);
- ta'lif muassasasi va OAV o'rtafigi o'zaro hamkorlikning aksiologik salohiyati;
- OAVda yetakchi mutaxassislarining ta'lif muassasalarda talaba jurnalistlarni tayyorlash bo'yicha o'quv jarayonidagi to'laqonli ilmiy-pedagogik faoliyati;
- kompetensiyaga asoslangan yondashuvdan foydalanish va subyektivlik, o'zgaruvchanlik, ijodkorlik tamoyillarini yangilash asosida o'quv ijodiy-ishlab chiqarish laboratoriyasini yaratish; kompetentsiyani shakllantirish uchun ijodiy xarakterdagi kasbiy yo'naltirilgan vazifalarni ishlab chiqish kerak.

"Kompetentlik tushunchasi bilim, ko'nikma yoki malaka tushunchalariga nisbatan kengroq, kompetentlik ularni ta'lif natijasi sifatida o'z ichiga oladi (lekin bunda kompetentlik bilim, ko'nikma va malakalarning oddiy yig'indisi emas, birmuncha boshqacharoq mazmundagi tushunchadir)". Kompetentlik tushunchasi nafaqat kognitiv va operatsion-tekhnologik, balki motivatsion, axloqiy, ijtimoiy tarkibiy qismlarni ham o'z ichiga qamrab oladi.

Hozirgi vaqtida ta'lif tizimi jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy sohasidagi o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan chuqur o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Oliy kasbiy ta'lifni modernizatsiya qilish mutaxassislarini tayyorlash sifatining zamonaviy dunyo voqeqliklariga qo'yiladigan talablar darajasiga muvofiqligini ta'minlaydi. Ta'lif samaradorligi kompetensiyasi olim S.I.Zair-Bek tomonidan ham qo'llab quvvatlangan. U ta'lifda talabalarning ma'lum bilimlarni o'zlashtirishda "intellektual va ijodiy salohiyatni rivojlantirishni, bu esa yangi bilimlarni yanada ishlab chiqarishga imkon beradigan, bilimlarni rivojlantirishga imkon beradigan eng muhim vazifa" - deb hisoblaydi. Oliy ta'lif muassasalarida professional jurnalistlarni tayyorlash o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, o'tgan davrning keskin qarama-qarshiliklarini, zamonaviy jamiyat hayotida ommaviy axborot vositalarining rolini oshirishni aks ettiradi. Shu o'rinda, "kompetentli yondashuvga aososlangan ta'lif o'quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatda amalda qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lmdir" - deb ta'kidlagan.

## NATIJA VA MUHOKAMA

Axborotning jamiyat faoliyati va rivojlanishidagi roli va ahamiyatining o'zgarishi muqarrar ravishda axborot bilan professional tarzda shug'ullanuvchilar, ya'ni axborot kasbiy faoliyatning obyekti va sub'ekti, uning natijasi bo'lganlar uchun sifat jihatidan yangi talablarni keltirib chiqaradi. Axborot jamiyatida jurnalistning ijtimoiy va kasbiy mas'uliyatini amalga oshirish bevosita faoliyat sub'eiktining yuksak fuqarolik yetukligiga va kasbiy mahoratiga bog'liq. Shuning uchun talaba jurnalistlarning malakasini shakllantirish zarur. Ta'lif muassasalarda jurnalistlar tayyorlash muammolarini o'rganishning dolzarbligi qarama-qarshiliklar bilan bog'liq:

- jamiyatning professional malakali, mas'uliyatli jurnalistlarga bo'lgan yuqori talabi va ommaviy axborot vositalarida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarining real madaniyat darajasi o'rtafiga;
- aloqa rivojidagi tez o'zgaruvchan vaziyat va bitiruvchilarning kasbiy kompetensiyasining yo'qligi, ularning zamonaviy texnik jihozlarda ishlashga tayyorligi o'rtafiga;
- jurnalistning harakatchanligiga qo'yiladigan talablarning ortishi va ta'lif muassasalarda o'quv jarayonini tashkil etishning an'anaviy usullaridir.

Jurnalist kadrlar tayyorlash muammosi holatini tahlil qilib, masalaning ilmiy jihatdan yuqori darajada rivojlanganligini hamda talaba jurnalistlarni kasbiy tayyorlash mazmuni va metodologiyasiga qarashning noaniqligini ta'kidlab, bunda fanda bilimlar fondi shakllangan va to'plangan, bu esa belgilangan tadqiqot muammosini o'rganish imkonini beradi.

Falsafiy, psixologik, pedagogik adabiyotlar tahlili talaba jurnalistlarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish uchun samarali shart-sharoitlarni yaratish imkoniyatini ko'rsatadi. Shu bilan birga, e'tirof etish joizki, jurnalistika ta'lifini sahnalashtirish hali shu nuqtai nazardan o'rganiilmagan. "Ta'lif muassasalar – OAV" tizimida shakllanishi mumkin bo'lgan modellaridan birini amaliyotga tatbiq etish uchun maxsus eksperimental yaratilmagan. Bu "Ta'lif muassasalar va – OAV o'rtafigi o'zaro hamkorlik talaba jurnalistlarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish omili sifatida" maxsus tadqiqot mavzusini tanlashni belgilab berdi.

Tadqiqot maqsadi: jurnalist-talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik shartlarini nazariy va amaliy jihatdan asoslash.

Tadqiqot obyekti: jurnalistlar tayyorlashda ta'lif muassasalar va OAVning o'zaro hamkorligi.

Tadqiqot predmeti: jurnalist-talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish.

Tadqiqot gipotezasi: ta'lif muassasalar va OAV o'tasidagi o'zaro hamkorlik jurnalistika talabalarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda samarali omil bo'ladi, agar:

- OAV faoliyatida jurnalist-talabalarning real ishtiroki ta'minlanadi (radio eshittirish va teledasturlar uchun materiallar yaratish);

- kasbiy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishda talabaning ijodiy qadriyat pozitsiyasi amalga oshiriladi;

- talaba jurnalistlarning kasbiy mahoratini (ya'ni kompetentsiyaning prakseologik komponentini) maqsadli shakllantirish uchun vaziyatlar yaratiladi;

- ta'lif muassasalar va OAV o'tasidagi o'zaro hamkorlikning aksiologik salohiyati yangilanadi;

- OAV yetakchi mutaxassislar bilan talaba jurnalistlarni tayyorlash bo'yicha o'quv jarayonida to'laqonli ilmiy-pedagogik faoliyati kafolatlanadi.

Maqsad, mavzu, tadqiqot gipotezasi asosida quyidagi tadqiqot vazifalari belgilandi:

- ta'lif muassasada jurnalistlarini tayyorlashda pedagogika va ixtisoslashtirilgan amaliyotning o'quv jarayonidagi o'zaro ta'siri muammosi bo'yicha nazariy bilimlarni tizimlashtirish;

- ta'lif muassasalar va OAV o'tasidagi o'zaro hamkorlikning eng samarali shakllarini hamda oliy jurnalistik ma'lumotli mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik shartlarini belgilash;

- ta'lif muassasalar va OAV hamkorligida jurnalist kadrlar tayyorlash tizimini joriy etish bo'yicha yo'riqnomalarni ishlab chiqish.

### **Bo'lajak jurnalistlarda axborot xavfsizligi kompetentligini rivojlantirish ijtimoiy zarururiyat sifatida**

Tadqiqotning nazariy va uslubiy asosini faoliyat nazariyasining asosiy qoidalari, qadriyatlar nazariyasi, shuningdek, jamiyatni shakllantirish muammosini qo'yish, o'rganish va hal qilish uchun zarur bo'lgan nazariy qoidalari tizimiga kompetentsiyaga asoslangan yondashuv tashkil etadi. Kasbiy etika, ijtimoiy mas'uliyat, jamiyat va fuqaroning huquq va manfaatlariga riosa qilishga, himoya qilishga munosabat bilan. Tadqiqot usullari ilmiy adabiyotlarni tushunish va nazariy tahlil qilish, analitik kuzatish, so'roq va intervyu, pedagogik eksperiment, axborot mahsulotlari tahlili va stajyor talabalar tomonidan bajarilgan o'quv vazifalari, bitiruvchilarining kasbiy faoliyatini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi va nazariy ahamiyati:

- jurnalistlarning bilim, ko'nikma, munosabatlarning integral birligi sifatidagi kasbiy kompetentsiya tushunchasiga aniqlik kiritildi; asosiy kasbiy malakalarning tasnifini ochib beriladi va asoslanadi: gnostik (kognitiv), analitik, dizayn, kommunikativ, konstruktiv, ijodiy, baholash, axborot;

- jurnalist-talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish uchun pedagogik shart-sharoitlar majmui belgilangan:

Mudofaa qoidalari:

Ta'lif jarayonida amaliyot va nazariya o'tasidagi o'zaro ta'sirning mohiyati o'quv jarayoni asosida ishlab chiqilgan individual o'quv rejasi doirasida o'quvchiga maxsus qo'yilgan o'quv va ishlab chiqarish vazifalarini bajarish jarayonida shaxsnинг ijodiy resurslarini ochib berishdan iborat.

Bo'lajak jurnalistlarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish modelini qurishda, talaba shaxsiga ta'sir etuvchi omillar, interfaol ta'lif metodlaridan foydalanib mashg'ulotlarni faollik o'yinlar bilan o'tish kerak.

Talabaning qobiliyat va imkoniyatlarini o'rganish, tizimdagи hududiy ommaviy axborot vositalarida katta tuzilmaning kadrlarga bo'lgan ehtiyoji bilan taqqoslash. Ma'lum pedagogik sharoitlarda o'quv jarayoniga organik ravishda kiritilgan axborot mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi amaliy faoliyat nafaqat nazariy materialni mustahkamlashga, balki ularning haqiqat va samaradorligini shaxsiy tekshirishga ham yordam beradi. Yaxlit va batafsil shaklga ega bo'lgan holda, o'quv jarayonining maxsus tashkil etilgan amaliy qismi sub'ektning faoliyatida kasbiy madaniyat normalari va qadriyatlari, umuminsoniy axloqning mustahkamlanishiga olib keladi. Universitet va teleradiokompaniya o'tasidagi o'zaro hamkorlikning optimal kompleks shakli talaba

## PEDAGOGIKA

jurnalistlarning kasbiy malakasini shakllantirish uchun ixtisoslashtirilgan eksperimental laboratoriya tashkil etish hisoblanadi.

Jurnalistlarning kasbiy malakasi uchta komponentning sintezidir: aksiologik, gnoseologik, prakseologik.

Gnoseologik komponent tipik va nostandard kasbiy vazifalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan jurnalistika talabalarining ma'lum umumiylari va maxsus bilimlarini o'z ichiga oladi.

Ushbu tadqiqotda kasbiy kompetentsiyaning tarkibiy qismi sifatida bilim, shuning uchun uchta real darajani ifodalaydi: 1) past - reproduktiv, 2) o'rta - samarali va 3) yuqori - ijodiy daraja.

Tarixga asosan axborotning muhimlik darajasi qadim zamонлардан ma'lum. Shuning uchun ham qadimda axborotni himoyalash uchun turli xil usullar qo'llanilgan. Ulardan biri – sirli yozuvdir. Undagi xabarni xabar yuborilgan manzil egasidan boshqa shaxs o'qiy olmagan. Asrlar davomida bu san'at – sirli yozuv jamiyatning yuqori tabaqalari, davlatning elchixonasi rezidensiyalari va razvedka missiyalaridan tashqariga chiqmagan. Faqat bir necha o'n yil oldin hamma narsa tubdan o'zgardi, ya'ni axborot o'z qiymatiga ega bo'ldi va keng tarqaladigan mahsulotga aylandi. Uni endilikda ishlab chiqaradilar, saqlaydilar, uzatishadi, sotadilar va sotib oladilar. Bulardan tashqari uni o'g'irlaydilar, buzib talqin etadilar va soxtalashtiradilar. Shunday qilib, axborotni himoyalash zaruriyati tug'iladi. Axborotni qayta ishlash sanoatining paydo bo'lishi axborotni himoyalash sanoatining paydo bo'lishiga olib keladi. I.L.Zelenkova ta'kidlaganidek, «agar erkinlikni mas'uliyatsizlik asosida o'zboshimchalik sifatida tushunuvchi «ma'anaviy yetishmovchilik» bilan aziyat chekuvchi insonlar axborot jamiyatida amal qilsalar, bu muhitning o'z muvozanati buziladi, obro'si yo'qoladi. Natijada ko'pgina insonlarni qamrab oluvchi va kelgusida qadriyatli yo'nalganlikni buzadigan ixtiyoriy ma'lumotga barqaror shubha yuzaga kelishi» bilan bog'liqligini ta'kidlagan.

Davlatning axborot sohasidagi siyosatini mamlakatda milliy xavfsizlikni ta'minlash davlat siyosati bilan chambarchas bog'laydi. Bunda axborot xavfsizligi tizimi davlat siyosatining asosiy tashkil etuvchilarini yaxlit bir butunlikka biriktiradi. Bu esa axborot xavfsizligining roli va uning mamlakat milliy xavfsizligi tizimidagi mavqeini belgilaydi. Masalan, davlatlarga nisbatan «Axborot xavfsizligiga tahdid manbalari tasodifiy va oldindan ko'zlangan bo'ladi». Shuning uchun bo'lajak jurnalistlarga mediasavodxonlik kompetentligini oshirilsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

Axborot sohasidagi O'zbekistonning milliy manfaatlarini, ularga erishishining strategik yo'nalishlarini va ularni amalga oshirish tizimlarini o'zida aks ettiruvchi maqsadlar yaxlitligi davlat axborot siyosatini anglatadi. Axborot xavfsizligi sohasida davlat siyosatini amalga oshirishga imkon beruvchi sharoitlarni yaratish, mamlakatni iqtisodiy va ilmiy-texnik taraqqiyotiga ko'maklashish, axborotni muhofaza qilishning usul va vositalarini yaratish dolzarb masalalardan biridir. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, axborotni muhofaza qilishda yetarli darajadagi yutuqlarga erishish uchun huquqiy, tashkiliy va texnik choralarini birgalikda amalga oshirish zarur. Bu himoyalanadigan axborotning konfidentsial, tahdidning tasnifi va himoya vositalarining mavjudligi bilan belgilanadi. Umumiyl holda xavfsizlikni ta'minlashning kompleks choralariga: – ruxsatsiz foydalanishdan kompleks himoya qilish vositalari; – apparat-dasturiy vositalar; – kriptografik muhofaza qilishning kompleks vositalari; – injener-texnik tadbirlar; – texnik kanallarni blokirovkalash kompleks vositalari; – obyektlarni jismoniy qo'riqlashni kiritish mumkin. Bu choralarning har biri boshqasini to'ldiradi, bironqa usulning yo'qligi yoki yetishmasligi yetarli darajadagi himoyaning buzilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Umumjahon axborot globallashuvi jarayonlari axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini nafaqat mamlakatlar iqtisodiyoti va boshqa sohalariga joriy etish, balki axborot tizimlari xavfsizligini ta'minlashni ham taqozo etayabdi. O'zbekiston axborot va kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi xalqaro xavfsizlik tizimiga Markaziy Osiyoda birinchilardan bo'lib qo'shilgan.

## XULOSA

Bo'lajak jurnalist kadrlarga axborot xavfsizligini ta'minlash, sohaga nisbatan potentsial tahdid manbalarini aniqlash va himoya choralarini qo'llash kompetentligini oshirib, mediamatnlar bo'yicha malakali tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish zarur. Chunki, "axborot xavfsizligiga tahdid manbalari ichki va tashqi manbalarga bo'linadi". Axborot asrida zamona vi dunyoga egalik qilish uchun kurashning asosiy vositalaridan biri axborotdir. Demak, globallashuv asrida axborot texnologiyalari va axborot boshqaruvi yuksak darajada taraqqiy etmoqda. Shuning uchun, bo'lajak jurnalist kadrlar OAV da targ'ib qilinadigan material va axborot bilan ishlashi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi kerak.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Qo'ysinov O. "Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari". Ped.fan.doktori...dis-T., 2019 43-b.
2. Зайр-Бек С.И. Критическое мышление. М., 2002. - С.33.
3. Asilova G."Bojxona va soliq yo'nalishlari talbalarining davlat tilida kasbiy muloqot yuritish kompetensiyasini rivojlantirish". Ilmiy ish. T-2017 y. b-18.
4. В. А. Галатенко. Основы информационной безопасности. Москва. 2003. [www.intuit.ru](http://www.intuit.ru)
5. В. И. Ярочкин. Информационная безопасность. М., 2003. С.67.